O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI
SAMARAQAND DAVLAT
UNIVERSITETINING
KATTAQO’RG’ON FILIALI

“TASDIQLAYMAN”
SamDUKF direktori:
_____ Sh.R.Urakov
2021 yil “30” 08

INKLYUZIV TA’LIM FANINING O’QUV DASTURI

Bilim sohasi:	900000 – Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot
Ta’lim sohasi:	110000 – Ijtimoiy ta’minot
Ta’lim yo‘nalishi:	60920100 – Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo‘yicha)

Fan/modul kodi TF2206	O'quv yili 2024-2025	Semestr 6-7	ECTS – Kreditlar 6
Fan/modul turi Tanlov	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 2

	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Umumiy (soat)
1.	Inklyuziv ta'lim	90(60-30)	90	180

2. **I. Fanning mazmuni**

- inklyuziv va integrasiyalashgan ta'lim tizimi haqida ma'lumot berish; -inklyuziv ta'limning huquqiy asoslarini ochib berish; -inklyuziv ta'limni joriy etish oldida turgan muammolarni o'rganish va bu muammolarni xal etish yo'llarini izlab topish; -inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlashnig asoslarini o'rganish; -inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish tamoyillarini taxlil qilish; ish tajribalarini taxlil qilish kabilardan iborat.

jamiyatda nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimini yo'lga qo'yish va ularga yordam berishdan iborat.

Fanning vazifalari:

Inklyuziv ta'lim fanini o'qitish vazifalari quyidagilarni hal etishga qaratilgan:

Inklyuziv ta'lim nogiron bolalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish hamda umumta'lim maktablarini nogiron bolalarga moslashtirishni ko'zda tutadigan, ijtimoiy adolat va tenglikni bosh maqsad qilib olgan jarayondir.

"Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'limga muofiq Nizom" asosida Respublikamizda inklyuziv ta'lim tizimining quyidagi huquqiy-ijtimoiy asoslari yaratildi: -bolani ijtimoiy hayotga tayyorlashda yoshi, jinsi irqi, millatidan qat'iy nazar O'zbekiston Konstitusiyasining moddasiga asosan barcha

bolalar umumta'lim jarayoniga kiritish va ijtimoiy hayotga moslashtirish lozimligi belgilangan; -har bir bola o'zining qiziqishi qobilliyati, va ehtiyojiga ko'ra mos ravishda bilim olishi huquqiga ega; -ta'lim dasturini ishlab chiqishda va amalga oshirishda o'ziga xoslik va ehtiyojlarning turli-tumanligini nazarda tutish; -har bir bola tengdoshlar qatori bilim olish huquqiga ega bo'lishi; -bolani ta'limga emas, balki ta'limni bolani ehtiyojiga ko'ra tashkil etilishi;

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

M1 Inklyuziv ta'lim kursining predmeti, maqsadi va vazifalari, obyekti, tamoyillari

Inklyuziv ta'limning maqsadi,predmeti, vazifalari. Inklyuziv ta'lim ijtimoiy ilmiy fan sifatida. Inklyuziv ta'limning o'ziga xos tomonlari. Inklyuziv ta'lim asosiy tamoyillari, o'rganish bosqichlari.Inklyuziv ta'limni fan sifatida kiritilishining ilm-fan va davlat rivojidagi ahamiyati.

M 2 Sharq mutafakkirlari qarashlarining bola ta'lim-tarbiyasidagi o'rni.

Mutafakkirlarning bola tarbiyasi haqidagi fikrlar, tarbiyaning afzallik jihatlari.Markaziy Osiyoda ibtidoiy jamoa davridagi bola tarbiyasi. Islom ma'rifat sivilizatsiyasining ta'lim-tarbiyaga ta'siri.Qur'oni Karim va Hadislarda axloq-odob, iymon, oila mustahkamligi, ota-onaga hurmat masalalari. Imom Ismoil al-Buxoriy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Navoiy va boshqa mutafakkirlarning axloqiy-ma'rifiy merosi.

M 3 Ta'lim muassasalarda sog'lom va nogiron yoshlar o'zaro muloqotining ijtimoiy xususiyatlari.

Ta'lim muassasalarida sog'lom va nogiron yoshlar muloqotini to'g'ri shakllantirish,

aloqadorlikni mustahkamlash.Muloqotni to'g'ri shakllantirishda ijtimoiylashuvning o'rni. O'zbek xalq pedagogikasida ta'lim-tarbiya masalasining ijtimoiy xarakteri.Jamoadagi psixologik zo'riqishlarni bartaraf etish choralari. Yoshlarimiz ma'naviyatini shakllantirishda oiladagi muhit, ona tarbiyasi, otalar o'giti, keyinchalik mahallada, umumta'lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida beriladigan ta'lim-tarbiya.

M 4 Inklyuziv ta'limning xalqaro huquqiy asoslari

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturio va «Ta'lim to'g'risida»gi qonunda huquqiy asoslarning belgilanganligi,mamlakatimizda inklyuziv ta'limga qaratilgan e'tibor ,inklyuziv ta'limning vazifalari,inklyuziv ta'lim siyosatining huquqiy asoslari,sog'lom, yetuk va barkamol shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazish . Mazkur huquqiy me'yoriy hujjatlar doirasi maxsus ehtiyojli bolar ta'lim-tarbiyasini huquqiy asoslari.

M 5 Inklyuziv ta'limga kiritishning asosiy tamoyillari

Inklyuziv ta'lim tamoyillari haqida tushincha,inklyuziv ta'lim tamoyillari va ularning mazmuni,inkyuziv ta'lim tamoyillarining maqsadi.Ta'lim tizimini to'g'ri tashkil etishga inklyuziv ta'lim tamoyillarining ahamiyati.Inklyuziv ta'lim tamoyillarining turlari va afzalliklari.

M 6 Maxsus ta'limga muhtoj bolalarga integrasiyalashgan ta'lim sharoitlarida yordam ko'rsatishning G'arbiy Yevropa tajribasi

Inklyuziv ta'limning maqsadi,maxsus ta'limga muhtoj bolalarga integrasiyalashgan ta'lim sharoitida yordam ko'rsatish, maxsus ta'limga muhtoj bolalarga yaratilgan shart –sharoitlar. Mamlakatimizda maxsus ta'limga muhtoj bolalar uchun imkoniyatlar va olib borilayotgan sai harakatlar.

M 7 Markaziy Osiyo mintakalari, Sharqiy, Janubiy va MDX davlatlarida inklyuziv ta'limning joriy etilishi

Inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari, yordamga muhtoj bolalar uchun maxsus darsliklarning yaratilishi, Markaziy Osiyo mintakalari, Sharqiy, Janubiy va MDX davlatlarida inklyuziv ta'limning fan sifatida joriy qilinishi, va jamiyatda o'z o'rnini tapishda ko'maklashish chora tadbirlari

M 8 O'zbekistan Respublikasida inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlashning tashkiliy va me'yoriy, huquqiy asoslari

Mamlakatimizda inklyuziv ta`limni qo'llab –quvvatlash,tashkiliy va meyoriy huquqlar, qonun yuzasidan qabul qilinayotgan qarorlar, yordam sifatida ko'rilayotgan chora tadbirlar va yaratilayotgan imkoniyatlar

M 9 Inklyuziv ta'lim maqsad va vazifalarini oshirishda resurs o'qituvchining o'rni va roli

Inklyuziv ta'lim orqali yordamga muhtoj insonlarga ko'maklashish,inklyuziv ta'limning afzallik jihatlari, maqsad va vazifalarini qonun bilan belgilash.O'qituvchi, inklyuziv ta'lim maqsad va vazifalarini oshirishgda resurs, o'qituvchining o'rni va vazifalari

M 10 Oilada inklyuziv ta'lim-tarbiyaning psixologik xususiyatlari

Oila jamiyatning bir bug'ini ekanligi,ta'lim-tarbiyaning maqsadi va vazifalarini yoritish.Oilada inklyuziv ta'lim-tarbiyani psixologik xususiyatlarini to'g'ri shakllantirish, Oila va jamiyat hamkorligi to'g'risida tushunchalar

M 11 Maktabgacha ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limning pedagogik-psixologik xususiyatlari

Inklyuziv ta'lim tushunchasi, ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limning joriy qilinishi, inklyuziv ta'lim tushunchasini mazmuni va mohiyatini yoritib berish,inklyuziv ta'limning pedagogik va psixologik jihatlarini tushuntirish

M 12 Inklyuziv ta'limda maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlantirish omillari

Inklyuziv ta'limda maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlantirish

omillarini ishlab chiqish, ushbu omillardan to'g'ri foydalana olish usullari va omillarning afzalliklari.Inklyuziv ta'limda maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishda ta'lim muassasasida muhitning to'g'ri tashkil qilinishini taminlash

M 13 Professinal ta'lim muassasalari va oliy o'quv yurtlarida inklyuziv ta'lim

Professinal ta'lim muassasalari va oliy o'quv yurtlarida inklyuziv ta'limni fan sifatida o'tkazilishini ta'minlash, inklyuziv ta'limni oliy ta'lim muassasalarida o'quvchi talabalarni rivojlantirish omillari

M 14 Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion inklyuziv ta'limni tashkil etish

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion inklyuziv ta'limni tashkil etish etish yuzasidan ko'rilayotgan chora tadbirlar va ularni amalga oshirish omillari

M 15 Inklyuziv ta'limni joriy qilish buyicha dastlabki tajriba va sinov ishlari

Inklyuziv ta'limni ta'lim muassasalari, nogironlik uylari va imkoniyati cheklangan jamiyat a'zolari uchun tashkil qilingan tashkilotlarda olib borilayotgan dastlabki sinov ishlari yuzasidan tushunchalar

M 16 Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy qilish uchun zarur bo'lgan tashkiliy va uslubiy ishlar

Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy qilish uchun zarur bo'lgan tashkiliy va uslubiy ishlar va ularning samaradorlik jihatlarini tushuntirish bilan birgalikda imkoniyati cheklangan bolalarning sog'lom bolalar qatorida ta'lim olishi yuzasidan tushunchalar

M 17 Inklyuziv ta'limda kadrlar masalasi

Imkoniyati cheklangan jamiyat vakillarini tarbiyalash bilan birgalikda ularga ta'lim berish va ta'lim muassasalarida yetuk kadrlarni jalb qilinishi borasida olib borilayotgan ishlar va ushbu jarayonni amalga oshirishda resurs o'qituvchining vazifalari

M 18 Maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim sharoitida o'qitishda o'quv tarbiya jarayonini moslashtirish metodlari

Bugungi kunda imkoniyati cheklangan yani maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim sharoitida o'qitishda o'quv tarbiya jarayonini moslashtirish metodlari va ushbu metodlarni amalda qo'llash usullar

M 19 Inklyuziv ta'limda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish masalalari

Inklyuziv ta'lim tashkil etilgan o'quv muassasalarda sog'lom va maxsus tarbiyaga muhtoj o'quvchilarni kasbga yo'naltirish masalalari va ta'lim sifatini oshirish omillari

M 20 Inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishning usullari

O'zbekistan Respublikasida inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlash va ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida yaratilayotgan imkoniyatlar va chora tadbirlar to'g'risida

II.I Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

M 1 Inklyuziv ta'lim maqsadi, vazifalari va mazmuni

M 2 Bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro Konvensiya

M 3 Sharq mutafakkirlari qarashlarining bola ta'lim-tarbiyasidagi o'rni

M 4 Ta'lim muassasalarda sog'lom va nogiron yoshlar o'zaro muloqotining ijtimoiy xususiyatlari

M 5 Inklyuziv ta'limning xalqaro huquqiy asoslari

M 6 Inklyuziv ta'limga kiritishning asosiy tamoyillari

M 7 Maxsus ta'limga muhtoj bolalarga integrasiyalashgan ta'lim sharoitlarida yordam ko'rsatishning G'arbiy Yevropa tajribasi

M 8 Sharqiy Yevropa mamalakatlarida inklyuziv ta'lim

M 9 Markaziy Osiyo mintakalari, Sharqiy, Janubiy va MDX davlatlarida inklyuziv ta'limning joriy etilishi

M 10	MDH davlatlarida inklyuziv ta'lim
M 11	O'zbekistan Respublikasida inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlashning tashkiliy va me'yoriy, huquqiy asoslari
M 12	Inklyuziv ta'lim maqsad va vazifalarini oshirishda resurs o'qituvchining o'rni va roli
M 13	Oilada inklyuziv ta'lim-tarbiyaning psixologik xususiyatlari
M 14	Maktabgacha ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limning pedagogik, psixologik xususiyatlari
M 15	Inklyuziv ta'limda maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlantirish omillari
M 16	Professinal ta'lim muassasalari va oliy o'quv yurtlarida inklyuziv ta'lim
M 17	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion inklyuziv ta'limni tashkil etish
M 18	Inklyuziv ta'limni joriy qilish bo'yicha dastlabki tajriba va sinov ishlari
M 19	Jamiyatga bolani integratsiya qilishning bosqichlari
M 20	Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy qilish uchun zarur bo'lgan tashkiliy va uslubiy ishlar
M 21	Jamiyatni inklyuziv ta'limga tayyorlash va ijobiy munosabatni uyg'otish va amalga oshirish
M 22	Inklyuziv ta'limda kadrlar masalasi
M 23	Maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim sharoitida o'qitishda o'quv tarbiya jarayonini moslashtirish metodlari
M 24	Inklyuziv ta'lim oldida turgan muammolar va ularning yechimlari
M 25	Inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishning usullari

III.Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan

holda quyidagi shakllardan foydalanishga tavsiya etiladi.

- ✓ darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- ✓ tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- ✓ maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- ✓ talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- ✓ faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- ✓ nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tish davomida talabalarni ijodiy jarayonga yo'naltirish, ularni tahlil qilish, mustaqil ishlashga o'rgatish, mashqlar bajarish;
- ✓ badiiy asarlarni estetik-g'oyaviy jihatdan tahlil qilish, klassik asarlar matni ustida ishlash, adabiy jarayonni psixologik tomondan kuzatib borish.

IV.Mustaqil ta'lim mavzulari

1. Inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari
2. Inklyuziv ta'lim davr talabi sifatida
3. Bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro Konvensiya
4. Sharq mutafakkirlari qarashlarining bola ta'lim-tarbiyasidagi o'rni
5. Sharq uyg'onish davrining ikkinchi bosqichidagi allomalar
6. Ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limning pedagogik-psixologik tahlili
7. Inklyuziv ta'lim tashkil etilgan o'quv muassasalarda sog'lom va maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar muloqotining perseptiv tomoni.
8. Inson va uning qadri borasidagi xalqaro doirada dastlabki hujjatlarning ishlab chiqilishi
9. Dunyo hamjamiyatida inklyuziv ta'lim
10. Inklyuziv ta'lim tizimi asosiy tamoyillari haqida
11. Inklyuziv ta'limni o'qitish bo'yicha ko'rsatmalar
12. Inklyuziv ta'lim borasidagi xalqaro hamjamiyatda dastlabki ijtimoiy munosabatlarning yuzaga kelishi
13. Sharqiy Yevropa mamalakatlarida inklyuziv ta'lim
14. Markaziy Yevropa mamalakatlarida inklyuziv ta'lim
15. Sharqiy, janubiy osiyo mintakalari inklyuziv ta'limning joriy etilishi
16. MDH davlatlarida inklyuziv ta'lim
17. Mamlakatimizda inklyuziv ijtimoiy munosabatlarni shakillanishi
18. Resurs o'qituvchining vazifalari
19. Umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim
20. Oila – sharqona ta'lim-tarbiya o'chog'i

	21. Oilada ruhiy holat va tarbiya 22. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim 23. Inklyuziv ta'limni psixologik qo'llab-quvvatlash 24. Maktabgacha yoshdagi boblalar rivojlanishining asosiy omillari 25. Bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish orqali maktabga tayyorlash 26. Inklyuziv ta'limda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish masalasi 27. Oliy ta'lim muassalarida inklyuziv ta'limni rivojlantirish: muammo va yechimlar 28. Innovatsion inklyuziv ta'limni mohiyati 29. Maktabgacha ta'limda inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish 30. Dastlabki tajriba inklyuziv maktablarini tashkil etilishi
3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: jismoniy va ruhiy ehtiyojlarini qondiradilar ijtimoiy xulq va o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish malakalarini yaratadilar ularning imkoniyatlarini hisobga olgan o'quv materiallarini o'zlashtiradilar tengqurlari bilan turli o'yinlarda ishtirok etib rivojlanadilar Ko'nikmalar jihatidan: ota-onalarga amaliy yordam ko'rsatadilar barcha bolalarga birdek bilim berib, tarbiyalaydilar
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-studilar;

	• sinovlar • krassvordlar • test
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	**Asosiy adabiyotlar:** 1. Polatova P.M va boshqalar, Maxsus pedagogika (Darslik). -T.: «Fan va texnologiya», 2014,368 bet. 2. Polatova P.M. Maxsus pedagogika: Oligofrenopedagogika /darslik.-T.: G'.G'alom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiyvuyf! 2005. 224 b. 3. Korreksion pedagogika va logopediya. o 'quv q o 'llanma /- T : "IQTISOD MOLIYA" 2007. - 1.4 b. 4. X.N.Muzaffarova, D.Tangirova "Inklyuzv ta'lim" fani bo'yicha o`quv metodik qo'llanma / Jizzax davlat pedagogika institute/. 2011 y 5. D.S.Qaxarova, Inklyuziv ta'lim texnologiyasi. -T.: "Fan va texnologiya", 2014, 192 bet **Qo'shimcha adabiyotlar:** 6. Mirziyoyev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan

	tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 48 b.
7.	Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar:** Sh.R.Urakov – SamDUKF, "Maktabgacha ta'lim va pedagogika" kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi I.Y.Madatov – SamDUKF, "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim,sport" kafedrasi o'qituvchisi ,D.R Xamidova "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim,sport" kafedrasi o'qituvchisi
9.	**Taqrizchilar: Taqrizchilar:** Psixologiya fanlari doktori (DSc) A.I.Saidov SamDChTI magistratura bo'limi boshlig'i. Psixologiya bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD), O.Qodirov. SamDU "Psixologiya" kafedrasi mudiri